

PLASTIK KARTALAR ORQALI HISOB-KITOB QILISHNING HUQUQIY TABIATI

Shukurov Eldor Narzulla o'g'li

eldorjonshukurov@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi

Annotasiya. Plastik kartalar oraqali hisob-kitob qilish naqd pulsiz to'lov qilishning shakllaridan biri sifatida jamiyatda ko'rinadi. Shu asnoda, plastik kartalar yaqin o'tmishda bizni hayotimizga va jamiyatimizga shiddat bilan kirib keldi. Bu tarzdagi to'lov qilish huquqiy tabiatining o'ziga xos jihatlar va maqsadlar mavjud.

Birinchidan, naqd pulsiz to'lov qilishning paydo bo'lishi, uning tarixi va istiqbollarinin rivojlanish tarixi va jarayoni mavjud. Bunda plastik kartalar qanday va qayerda birinchi paydo bo'lgani va nima maqsadda karta orqali to'lov joriy qilingani haqida fikr yuritiladi. Ikkinchidan, bir qancha davlatlarda plastik kartalar orqali to'lov qilishning huquqiy jihatdan tartibga solinishi va qonunchiligi haqida ham munozara amalga oshiriladi. Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida plastik kartalar orqali hisob-kitob qilish huquqiy tartib-taomillari va ularni chet el davlatlar qonunchiligi bilan o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilinadi.

Mazkur ish doirasida naqd pulsiz to'lov qilishning shakllaridan biri hisoblangan plastik kartalar orqali to'lov qilishning huquqiy tabiatining chet el tajribasi, qonunchiligi va milliy qonunchiligimizda plastik kartalarning qonuniy jihatdan taartibga solinishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar . Plastik kartalar, bank, karta emitentlari, naqd pulsiz hisob-kitoblar, rivojlanishi, kredit tashkilotlari, operatsiyalar

LEGAL NATURE OF SETTLEMENT BY PLASTIC CARDS

Shukhurov Eldor Narzulla ugli

3rd year student of Tashkent State University of Law

eldorjonshukurov@gmail.com

Abstract. Payment by plastic cards is seen in society as one of the forms of cashless payment. At the same time, in the recent past, plastic cards have entered our lives and society. The legal nature of this type of payment has specific aspects and purposes.

First, there is the history and process of the development of cashless payment, its history, and prospects. It will reflect on how and where plastic cards first appeared and for what purpose card payment was introduced. Secondly, there will be a discussion about the legal regulation and legislation of payment by credit cards in several countries. Thirdly, the legal procedures of settlement by plastic cards in the legislation of the Republic of Uzbekistan and their similarities and differences with the legislation of foreign countries are analyzed.

In this work, the legal nature of payment by plastic cards considered one of the forms of non-cash payment, foreign experience, legislation, and the legal regulation of plastic cards in our national legislation will be considered.

Key words: Plastic cards, bank, card issuers, cashless settlements, development, credit organizations, operations.

Plastik kartalar orqali hisob-kitob qilish deganda, avvalam, bor biz nimani tushunishimiz kerak? Agar bu savol bizdan 20-25 yil avval so'ralganda edi balki, ancha ikkilangan holda aniq bir fikrga kela olmas edik. Lekin hozirgi vaqtda har bir shaxs bank plastik kartalaridan har kunlik hayoti davomida foydalanishmoqda va karta orqali sotib olingan mahsulot uchun, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqa ishlar uchun to'lovlarni amalga oshirishmoqda. Bank kartalari orqali to'lov qilish allaqachon bizning hayotimizning ajralmas qismiga aylanishga ulgiran.

Dastlab, plastik karta orqali hisob-kitob qilishga tarif bersak, bu shaxslarni ishlar, xizmatlar va tovarlar uchun to'lovlarni kartadan pul ko'chirish orqali amalga oshirish tizimidir.

Quyida biz Amerikada plastik kartalar orqali hisob-kitob qilishning kelib chiqish tarixi, o'ziga xos jihatlari, Turkiya qonunchiligiga ko'ra naqd pulsiz yani kartalar orqali hisob-kitob qilish, Rossiya federatsiyasida plastik kartalar orqali to'lovlarni amalga oshirishning huquqiy tomoni va O'zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblarni qonuniy jihatdan tartibga solinish tartibotini o'rganib, taqqoslab chiqamiz.

Zamonaviy to'lov kartalari kredit va qarz kartalaridan tortib to saqlangan qiymat va sodiqlik kartalarigacha bo'lgan iste'mol texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Ammo bu moliyaviy vositalarning barchasini birlashtiradigan narsa ularning hisob-kitob tizimlari bilan bog'liqligidir. Har bir hisoblarni tekshirish, xarid tafsilotlarini yozib olish, mablag'larni almashish va balanslarni yangilash uchun ko'rinmas infratuzilmalar orqali ma'lumotlar yuboriladi va shu tizim orqali hisob kitoblar amalga oshiriladi. To'lov kartalari yordamida banklar va savdogarlar tranzaksiya ma'lumotlarining katta arxivlarini to'plashlari mumkin va bu orqali doimiy to'lovlarni, xarajat va chiqimlarni tekshirib ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Bu ma'lumotlarning o'zi har bir shaxs uchun qimmatli

aktivlardir. Bu ma'lumotlar ichki ma'lumotlarni tahlil qilish dasturlari uchun ishlatilishi yoki uchinchi shaxslarga marketing ma'lumotlari sifatida sotilishi mumkin. Karta orqali to'lovlar Qo'shma Shtatlarda 19-asrning oxiridan hozirgi kungacha to'lov kartalarining rivojlanishini o'rganib, ularning identifikatsiya qilish, hisobga olish va ma'lumotlarni qidirish bilan kartalarni paydo bo'lishiga e'tibor qaratdi. To'lov kartalari tarixi faqat moliyaviy innovatsiyalar va hisoblash tarixi emas, balki bu katta hajmdagi ma'lumotlar va iste'molchilarning hisob-kitoblarni kuzatish tarixidir. Bundan tashqari, ushbu tarix tranzaksiya ma'lumotlarining o'sishi va raqamli iqtisodiyotda pul ma'lumotlarini aniqlash haqida bir qancha tushuncha ham beradi.

“2002 yilda Torontoda joylashgan milliy chakana sotuvchi “Canadian Tyre” kompaniyasining menejeri do'konning kredit mijozlari haqida hayratlanarli kashfiyotlar qiladi. Do'konning karta ma'lumotlarini sinchkovlik bilan tahlil qilish orqali mijozlar o'z kartalaridan qanday foydalanganliklari va to'lovlarni qanday to'lashlari o'rtasidagi statistik ma'lumotlarni aniqladi. Shu bilan bir qatorda, kompaniya rahbari qush urug'i va stollar oyoqlari uchun himoya namatlari mahsulotlarini sotib olgan mijozlar ularning kompaniyasi uchun ishonchli hisob-kitob to'lovchilari bo'lishini bilib oladi. Aksincha, arzon motor moyi va bosh suyagining xrom aksessuarlarini sotib olgan xaridorlar to'lovlarni o'tkazib yuborish ehtimoli ko'proq ekanini aniqladi. Bir necha yil o'tgach, Amerikaning ommaviy tovar sotuvchisi Target kompaniyasining marketing bo'yicha rahbarlari hozirda mashhur bo'lgan ma'lumotlar olish dasturida shunga o'xshash kashfiyotlar qilishdi. Do'konga kelgan mijozlarining identifikatsiya raqamlarini xaridlar qaydlari bilan bog'lash orqali tahlilchilar

qaysi xaridorlar nima xarid qilishi mumkin ekani haqida taxmin qilishlari mumkin edi”¹.

Karta orqali hisob-kitob qilishning huquqiy tartibotida Turkiya qonunchiligiga kelsak, bu tizim alohida tartibga solingan, bank kartalari foydalanuvchilari va banklar o’rtasidagi munosabatlar alohida qonunosti hujjat orqali amalga oshiriladi. Ushbu qonundan maqsad “**Bank** kartalarini chiqarish, ulardan foydalanish va hisob-kitoblarga nisbatan qo’llaniladigan tamoyillar va tartiblarni belgilash orqali kartalar orqali to’lovlar tizimining samarali va tizimli ishlashini ta’minlashdan iborat”².

Bu qonun orqali bank kartalarining huquqiy holati, plastik kartalar tizimini tashkil etuvchi, kartochkalar chiqaradigan va savdo shartnomalari tuzuvchi tashkilotlar va shaxslar, shuningdek savdogarlar va karta egalarning karta orqali pul ko’chirish jarayoni huquqiy jihatdan tartibga solinadi.

Kartalarni chiqaradigan yoki tovarlar yoki xizmatlarni sotish, kreditorlik va debitorlik qarzlarni faqat o’z ish joyida kuzatish tizimini tashkil etuvchi yoki oldindan belgilangan miqdor yoki darajagacha kartalarni chiqaradigan shaxslar yoki tashkilotlarning bank kartalaridan foydalanib, to’lovlarni samarali amalga oshirish va har qanday kreditlash operatsiyasi yoki pul ko’chirish jarayonlarini osonlashtirish uchun tizimlilik tashkil etadi.

Qonunga ko’ra karta chiqaruvchi emitent (bank) ning bir qancha majburiyatlar olishi va ularni bajarish kerak ekani ko’rsatib o’tilgan, jumladan, karta emitentlari hech qanday holatda va hech qanday sababsiz so’rov yubormagan yoki kredit karta shartnomasini imzolamagan shaxs nomiga kartani

¹ Sage journals - Plastic surveillance: Payment cards and the history of transactional data, 1888 to present by Josh Lauer

² Bank cards and credits cards law March 1, 2006 Article 1

berishi mumkin emas. Kredit karta so'rovlari, ularning bosh ofislari yoki filiallaridan tashqari, karta chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan to'planishi mumkin bo'lgan saytlar, Agentlik bilan tegishli maslahatlashuvlar natijasida Turkiya Banklar Uyushmasi va Turkiya Ishtirokchi Banklar Uyushmasi tomonidan birgalikda belgilanadi.

Bundan tashqari oxirgi to'lov sanasidan keyin uch oy ichida eng kam miqdor to'lanmaganda va karta egasi tomonidan kartani chiqaruvchi tashkilotdan bildirishnoma olinganidan keyin bir oy ichida ko'rsatilgan summa to'lanmagan taqdirda yoki Bank kartalari va kredit kartalaridan foydalanganlik uchun sud tomonidan jarimalar va hukmlar qo'llanilgan taqdirda, tegishli karta emitent tashkiloti ushbu karta egasiga berilgan barcha kredit kartalarini bekor qiladi va to'liq to'lanmaguncha va hisob-kitob qilinmaguncha yangi kredit kartalarini chiqarmaslikka va bermaslikka haqli bo'ladi.

Karta emitentlari kartalardan to'g'ri va xavfsiz foydalanishni ta'minlash hamda bildirishnomalar, so'rovlar, shikoyatlar va e'tirozlar bo'yicha zarur chora va tadbirlar ko'rish tizimini yaratishi hamda doimiy ravishda ochiq faoliyat yuritishi shart ekanligi ko'rsatib o'tilgan, bu bilan davlat vujudga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiya holatlar yoki ehtimoliy firbgarliklarni oldini olishni maqsad qilgan.

Karta emitentlari kartani chiqarish vaqtida karta egasiga tegishli ma'lumotlarni taqdim etishlari shart, amalga oshirilgan topshiriqlar to'g'risidagi yozuvlarni bunday operatsiyalarning xususiyatiga mos keladigan oqilona vaqt ichida taqdim etishi shart. Maksimal muddat - o'ttiz kun. Chet elda amalga oshiriladigan operatsiyalar uchun bu muddat oltmish kun bo'lishi kerak ko'rsatilgan. Bundan kelib chiqadiku bank orqali pul ko'chirish jarayoni mamlakat ichida umumiy o'ttiz kun ichida va bir davlatdan boshqa davlatga oltmish kun davomida amalga oshirilishi kerak deya tushunishimiz mumkin.

Yana shuni ko'rsatish mumkinki, kartalardan alohida belgilar orqali foydalanish shakli ham ko'rsatib o'lgan. Agar kartalardan faqat kod raqami, shifrlash yoki boshqa identifikatsiyalash usuli yordamida foydalanish mumkin bo'lsa, kartani chiqaruvchi tashkilotlar bunday ma'lumotlarni qat'iy maxfiy saqlash, shuningdek, karta raqamini bosib chiqarishga yo'l qo'ymaslik uchun barcha choralar va tadbirlarni ko'rishlari shart. Bu xavfsizlik asosan mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari tarqalib ketishi va shaxsiy ma'lumotlarga tashqi hujumning oldini olishga qaratilgan.

Turkiya qonunchiligi bank kartalarini bilan hisob-kitob qilishning har bir jabhasini qamrab olgan, bank tomonidan karta taqdim etilishidan tortib to mijozlarning xavfsizligigacha bo'lgan jarayonni tizimli tashkil etish majburiyatini emitent o'z zimmasiga olgan. Shu sababli ham har shaxs kartalardan foydalangan tarzda xizmatlar, tovarlar va boshqa tarzdagi chiqimlar uchun to'lovlar qilishi yoki o'zaro yuridik shaxslar o'rtasidagi hisob-kitob qilish jarayoni bank hisob raqami orqali xavfsiz amalga oshirilishi mumkin.

Rossiya federatsiyasi qonunchiligiga to'xtalsak, plastik (bank) kartalari bo'yicha to'lovlar zamonaviy sharoitlarda shaxslar uchun juda dolzarbdir. Bu holat bir qancha sabablarga bog'liq hisoblanadi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimida asosan Rossiya qonunchiligida quyidagilar qo'llaniladi:

- xo'jalik operatsiyalaridan kelib chiqadigan pul majburiyatlarining mutlaq ko'pchiligini bajarishda to'lovlarni amalga oshirish;
- budjet mablag'lari va budjetdan tashqari jamg'armalarni yig'ish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida;

- kommunal to'lovlarni, aloqa xizmatlarini to'lash, shuningdek, bank kartalari yordamida tovarlarni sotib olish va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishda kartalar orqali hisob-kitob qilish holatlarini ko'rishimiz mumkin.

Fuqarolik muomalasida naqd pulsiz o'tkazmalar bugungi kunda pul majburiyatlarini bajarishning eng muhim vositasiga aylanib bormoqda. Shu sababli, naqd pulsiz pul o'tkazmalari tizimidagi har qanday ijobiy jarayonlar ko'p hollarda hisob-kitob, to'lov tizimini samarali qiladi. Zamonaviy fuqarolik huquqida pul va to'lov o'rtasidagi yaxshilanishlarning asosiy xususiyatlaridan biri uning hisob-kitob sur'atlarini tezlashganidir. Hisob-kitoblar sohasida ushbu tendentsiya qog'ozdagi hisob-kitoblardan elektron hujjatlardan foydalangan holda hisob-kitoblarga o'tishni ta'minlamoqda. Bunday hisob-kitoblarning turini keng yoyishda bir qancha usullardan foydalanmoqda Rossiya federatsiyasi, jumladan;

- bank kartalaridan foydalanish ularning mijozlari va savdo tashkilotlari uchun rentabillikni keltirgani sababli fuqarolarninig to'lovlarni karta orqali amalga oshirganda, ularga qo'shimcha imtiyozlar berish;

– plastik (bank) kartalar bozori rivojlanishining hozirgi bosqichida mukammallik talab etishini hisobga olib, barcha soha jabhalarida to'lovning karta tizimini joriy etishmoqda³.

Texnologik taraqqiyot tufayli naqd pulsiz hisob-kitoblarning **rivojlanishi**, mavjud holatlarni takomillashtirish va to'lovlarning yangi shakllari va usullarining paydo bo'lishi jamiyat hayotida kuzatilmoqda. Rossiya federatsiyasi fuqarolik qonuniga ko'ra, naqd pulsiz hisob-kitoblar to'lov quidagi shakllarda:

- to'lov topshiriqnomalari;
- akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar;
- inkasso va cheklar bo'yicha hisob-kitoblar shaklida;

³ Банковское дело: Учебник/Под ред. О. И. Лаврушина. – М.: Финансы и статистика, 1998.

- shuningdek qonun hujjatlarida;

- bank qoidalarida yoki bank amaliyotida qo'llaniladigan odatlarda nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin deya ko'rsatib o'tilgan. Bundan kelib chiqadiki aynan ana shu amaliyotda qo'llanadigan boshqa shakllar sifatida bank kartalarini to'lov shaklining bir turi deya olishimiz mumkin.

“Naqd pulga mahsulot sotishda kredit va boshqa to'lov kartalari orqali hisob-kitob qilish, banklarning hisob-kitob cheklari orqali, jismoniy shaxslar nomidan bank hisobvaraqlaridan pul o'tkazmalarini o'tkazish tarzida, shuningdek tovarlarni haqini karta orqali o'tkazish bilan sotishga (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) aholiga boshqa tovarlar (ishlar, xizmatlar) evaziga sotishga tenglashtiriladi”⁴.

O'zbekiston Respublikasida plastik (bank) kartalari orqali hisob-kitob qilish asosan Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan qoidalar asosida tartibga solinadi.

“Agar qonundan boshqacha tartib kelib chiqmasa va bunday tartibni foydalanilayotgan hisob-kitoblar shakli taqozo etmasa, naqd pulsiz hisob-kitoblar ularda qatnashayotgan shaxslarning hisobvaraqlari ochilgan banklar, boshqa **kredit tashkilotlari** (banklar) orqali amalga oshiriladi”⁵.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish biz yuqorida ko'rib o'tgan Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi bilan deyarli o'xshash, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko'ra naqd pulsiz to'lovlar to'lov topshiriqnomalari, akkreditivlar, cheklar, inkassolar va shuningdek qonunga muvofiq chiqariladigan bank qoidalarida hamda bank amaliyotida

⁴ "Об основах налоговой системы в Российской Федерации"

⁵ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 790-modda

qo'llanilayotgan ish muomalasi odatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda hisob-kitob qilish mumkin deya ko'rsatilgan.

Naqd pulsiz hisob-kitob qilish hozirgi zamonda qulay to'lovni amalga oshirish vositasi bo'lib bormoqda, shu sababli ham davlat tomonidan e'tibor shu sohani tartibga solishga qaratilmoqda. Ayniqsa, bank va mijoz o'rtasida aloqalarni mustahkamlash, ularni huquqiy jihatdan tartibga solish muhim vazifalardan biri bo'lgan holda, davlatning asosiy siyosat yo'nalishiga aylanib bormoqda. Hozirda har qanday shaxs, ham yuridik ham jismoniy shaxs tolovlarni naqd pulsiz shaklda amalga oshira olish imkoniga ega. Bu tarzda to'lovlar kartadan kartaga pul mablag'larini o'tkazish shaklida jismoniy shaxslar o'rtasida tovarlar, xizmatlar va ishlar uchun to'lovlar amalga oshirilmoqda. Yuridik shaxs tashkil etgan tarzda esa imkoniyatlar biroz ko'proq deya olishimiz mumkin, chunki yuqorida ko'rib o'tdik, naqd pulsiz hisob-kitob qilish yuridik shaxsning bank hisob raqami orqali amalga oshirishi mumkin ekanini.

Bu naqd pulsiz tarzidagi to'lov shakllari alohida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qaror asosida ham tartibga solingan. Unga ko'ra "Bank kartalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan hisob-kitoblar qog'ozda (slip, cheklar, sms-xabar) yoki elektron shaklda boshqa ma'lumotnomalar bilan tasdiqlanadi. Bunda mazkur ma'lumotnomalar hisob-kitoblarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi tomonlarga yetarli nusxalarda shakllantiriladi. Ma'lumotnomalar bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak"⁶.

Yaniki, bank orqali naqd pulsiz hisob-kitob qilish qog'ozda, alohida hujjat tarzida amalga oshirish kerak ekanligi yoki online tarzda yani elektron

⁶ O'zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari to'g'risidagi nizam 24-band

shaklda amalga oshirish mumkin ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari hisob-kitob varaqalaridagi ma'lumotnomalarda bank kartasi va uning saqlovchilarining bankdagi hisobvaraqlari rekvizitlari, shuningdek tashkilotlar, naqd pul berish punktlari va bankomatlar to'g'risida ma'lumotlar bo'lishi shart deya ko'rsatib o'tilgan. Aynan ana shu jihatda bizni qonunchiligimiz va yuqorida ko'rib o'tgan Turkiya qonunchiligidagi bank kartalarini tartibga solish tizimi bir biriga o'xshash.

Bank kartalari orqali **operatsiyalar** bo'yicha umumiy hisob-kitoblar to'lov tizimlari orqali quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

- bank tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan mijozdan olingan elektron hujjatlar asosida avtomatik ravishda elektron xabarnoma shakllanadi hamda o'tkazmalarni ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish uchun to'lov tizimi orqali emitent (bank)ga yuboriladi;

- emitent elektron xabarnoma asosida buyruqni ro'yxatga olib, mablag'larni to'lov tizimi orqali tegishli mablag'larni oluvchiga o'tkazish uchun bajaruvchiga yuboradi hamda mablag'larni bank karta hisobvarag'idan hisobdan chiqarish uchun elektron xotiraviy buyruqni dasturiy ravishda shakllantiradi;

- mablag'lar bajaruvchi tomonidan emitentdan olingan elektron xotiraviy buyruq asosida mablag'larni oluvchining hisobvarag'iga o'tkaziladi va xotiraviy buyruq ro'yxat ko'rinishida chop etilib, bankning kunlik hujjatlar yig'majildiga tikiladi.

Ana shu tarzda bank hisob raqamlari orqali shaxslar o'rtasida hisob-kitob ishlari amalga oshiriladi.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, zamonaviy 21-asrda bank kartalariga bo'lgan talablar tobora oshib bormoqda butun dunyo bo'ylab, chunki bu tarzda to'lov qilish va hisob-kitob ishlari bir qancha qulayliklarga va

afzalliklarga ega. Misol tariqasida ayta olamiz, bu eng xavfsiz yo'llardan bir balki, eng xavfsiz va eng samaralisi hamdir. Chunki shaxslar o'zlari bilan katta miqdordagi pullarni olib yurishi shart bo'lmaydi va bundan tashqari to'lovlarni kartalar orqali tez va oson amalga oshira oladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, haqiqatda, nafaqat ko'p davlatlar tomonidan balki bizni davlatimizda ham to'lovlarni bank kartalari orqali amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirishning zaruriy chora-tadbirlari ko'rilmoqda, bundan tashqari huquqiy jihatdan bu tizimni tartibga solishda bir qancha qonunlar qabul qilinmoqda va qonun loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Adabiyotlar/References

1. Банковское дело: Учебник/Под ред. О. И. Лаврушина. – М.: Финансы и статистика, 1998.
2. “Об основах налоговой системы в Российской Федерации”
3. “Гражданский кодекс Российской Федерации”
4. Sage journals - Plastic surveillance: Payment cards and the history of transactional data, 1888 to present by Josh Lauer
5. “Bank cards and credits cards law” March 1, 2006 Article 1
6. Иброхимов, А. А. Ў. (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 841-853.
7. Ibrohimov, A. A. M. O. G. L., & Nechaeva, E. V. (2022). XALQARO INVESTITSIYA HUQUQIDA MILLIY REJIM VA ENG QULAY SHARTLAR REJIMI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 414-425.
8. Ibrohimov, A. A. O., Koryogdiyev, B. U. O., & Tojiboyev, S. Z. (2022). KORPORATIV NIQOBLARNI OLIB TASHLASH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTON KORPORATIV HUQUQIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 1068-1082.
9. O'G'Li, A. A. M. (2022). KORPORATSIYA USTAV KAPITALI FUNKSIYALARI VA UNGA OID MILLIY QONUNCHILIK NORMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Academic research in educational sciences*, 3(8), 109-113.
10. Azimjon, I. (2022). ZARAR–YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA.
12. “O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi”
13. “O'zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari to'g'risidagi” nizom